

OLIV TA'LIM MUASSASALARIGI
KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.	2048YKJA*Familiya Ism (Viloyat) *JAVOBLAR
Namuna: 2048YKJA*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...	
Izoh:	
1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida O',G' harflari qatnashsa ularni o'rniga U va G harflarini ishlating.	
2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.	
3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. 22.06.2019-23.06.2019	
4) Repetitsion testning sms javoblari soat 21:00 gacha qabul qilinadi.	
Natijalar: Har kuni @repetitsiontestuz kanalida soat 22:00 e'lon qilinadi	

SAVOLLAR KITOBII

BLOKLAR:

Matematika (3.1)
Fizika (2.1)
Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.


IMZO

DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

MATEMATIKA

1. 2016·(2017·2018+1) ifoda quyidagilardan qaysi biriga teng.
 A) $2017^3 + 1$ B) $2017^3 - 1$
 C) $2017^2 - 1$ D) $2017 \cdot 2018$
2. Ifodani soddalashtiring: $\frac{\sqrt[3]{40}}{\sqrt[3]{625}}$
 A) 0,8 B) 0,5 C) 0,4 D) 0,2
3. Kasrni qisqartiring: $\frac{x+y}{\sqrt[3]{x} + \sqrt[3]{y}}$.
 A) $\sqrt[3]{x^2} - \sqrt[3]{xy} + \sqrt[3]{y^2}$ B) $\sqrt[3]{x^2} + \sqrt[3]{xy} + \sqrt[3]{y^2}$
 C) $\sqrt[3]{x} + \sqrt[3]{y}$ D) $\sqrt[3]{y} - \sqrt[3]{x}$
4. Agar $x < -2$ bo'lsa, $\sqrt{x^2 + 6x + 1} + \sqrt{9 - 12x + 4x^2}$ ifodani soddalashtiring.
 A) $-2x$ B) $-2 - x$ C) $2 + x$ D) $2 - x$
5. Uch yashikda 42,8 kg meva bor. 2-yashikdagi meva 1-yashikdagi mevaning 0,8 qismini tashkil qiladi, 3-yashikda esa 2-yashikdagining 42,5% miqdoricha meva bor. Uchinchi yashikda qancha meva bor?
 A) 8,6 kg B) 6,8 kg C) 7 kg D) 6,4 kg
6. Tenglamani butun yechimlari sonini toping: $1 - \sqrt{1+x} = 0$
 A) 0 B) 3 C) 2 D) 1
7. Nechta butun son $(x^2 + 6x)^2 \leq 49$ tengsizlikning yechimi bo'la oladi?
 A) 9 ta B) 8 ta C) 7 ta D) 6 ta
8. Agar $|a| < 1, |b| < 1$ va $a + ab + ab^2 + ab^3 + \dots = \frac{5}{16}$,
 $b + ba + ba^2 + ba^3 + \dots = \frac{4}{15}$ bo'lsa, $80ab$ ni qiymatini toping.
 A) 12 B) 32 C) 4 D) 6
9. $\frac{1}{\sin 70^\circ} - \operatorname{tg} 170^\circ \cdot \operatorname{tg} 160^\circ$ ifodani qiymatini toping.
 A) -1 B) 0 C) 1 D) -2
10. $\sin 200x \cdot \cos 199x - \cos 200x \cdot \sin 199x = 0$ tenglamaning $[0; 4\pi]$ oraliqqa tegishli ildizlari soni nechta?
 A) 4 B) 3 C) 2 D) 5
11. Grafik ko'rinishda berilgan funksiyani toping.

 A) $[-2; 3]$ B) $[-2; 2]$
 C) $[-4; 4]$ D) $(-2; 2)$
12. $f(\varphi(x)) = \frac{x+2}{x-3}$, $\varphi(x) = 2x-1$ bo'lsa, $f(x) = ?$
 A) $f(x) = \frac{2x+5}{x-5}$ B) $f(x) = \frac{x-5}{x+5}$
- C) $f(x) = \frac{x+5}{x-5}$ D) $f(x) = \frac{x-5}{2x-5}$
13. Agar $x \neq 0$ bo'lsa, $5 + 5^{2x+y} - 5^{x+1} - 5^{x+y} = 0$ tenglamadagi x ni y orqali ifodalang.
 A) $x = -1 - y$ B) $x = 1 - y$
 C) $x = y + 1$ D) $x = y - 1$
14. $\log_3 7 + \log_7 3$ yig'indi yotgan oraliqni aniqlang.
 A) $(-\infty; 2)$ B) $(1; 2)$ C) $(0; 2)$ D) $(2; \infty)$
15. Tenglamani yeching: $\lg(x^2 - 3x + 1) \cdot \lg(x - 1) = 0$
 A) 2 B) 12 C) 3 D) 10
16. Moddiy nuqta yurgan yo'li quyidagi qonuniyat bo'yicha o'zgaroqda: $S(t) = \frac{t^3}{3} - 4t^2 + 7t + 2$ (t -vaqt(sek)).
 Nechanchi sekund oxirida u ikkinchi marta to'xtaydi?
 A) 8 B) 5 C) 1 D) 7
17. $\int_{-2\pi}^{\pi} \sin 2x dx$ integralni hisoblang.
 A) -1 B) 1 C) 0 D) 2
18. Agar ABC uchburchakning AB va AC tomonlarida M va N nuqtalar olinib, ular tomonlarni mos ravishda $AM : BM = 2 : 5$ va $AN : CN = 4 : 5$ kabi nisbatda bo'lsa, CM to'g'ri chiziq BN kesmani qanday nisbatda bo'ladi?
 A) 9 : 2 B) 12 : 7 C) 9 : 5 D) 6 : 5
19. $ABCD$ rombning AB va AD tomonlarida M va N nuqtalar mos ravishda shunday olinganki, bunda MC va NC to'g'ri chiziqlar rombni uchta tengdosh qismga ajratadi. Agar $BD = 24$ bo'lsa, MN ni toping.
 A) 4,5 B) 4 C) 6 D) 8
20. Teng yonli uchburchakning asosi 8 sm ga, yon tomoni esa 5 sm ga teng. Bu uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalarning markazlari orasidagi masofani (sm) toping.
 A) 3/8 B) 5/2 C) 5/6 D) 7/6
21. $A(0; 1)$ nuqta uchun $y = 2x + 6$ funksiyaga nisbatan simmetrik bo'lgan nuqtani toping.
 A) $(-4; 3)$ B) $(0; 2)$ C) $(0; 3)$ D) $(2; 0)$
22. Parallelogramning bir tomoni orqali unga qarama-qarshi tomonidan a masofada yotuvchi tekislik otkazilgan. Parallelogramning diagonallari kesishish nuqtasidan berilgan tekislikgacha bo'lgan masofani toping.
 A) $\frac{a}{\sqrt{2}}$ B) $\frac{a}{\sqrt{3}}$ C) $\frac{a}{3}$ D) $\frac{a}{2}$
23. Parallelogramning diagonallaridan biri uning yon tomoniga perpendikulyar va unga teng. Parallelogramning katta diagonali P tekislik bilan α burchak tashkil etadi. Agar $\cos \alpha = \sqrt{0,936}$ bo'lsa, parallelogram tekisligi va P tekislik orasidagi ikki yoqli burchakning kosinusini toping.
 A) 0,8 B) 0,5 C) 0,6 D) 0,2
24. Ifodani soddalashtiring: $\frac{1}{(n+4)!} - \frac{1}{(n+5)!}$
 A) 0 B) $\frac{n+4}{(n+5)!}$

C) $\frac{1}{(n+4)!(n+5)!}$ D) $\frac{(n+4)!}{(n+5)!}$

25. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang:

1) $\int \sin(g(x)) \cdot g'(x) dx = -\cos(g(x)) + C$

2) $\int \cos(g(x)) \cdot g'(x) dx = \sin(g(x)) + C$

3) $\int ctg(g(x)) \cdot g'(x) dx = \ln |\cos(g(x))| + C$

A) 2; 3 B) 1; 2 C) 1; 2; 3 D) 1; 3

26. Quyidagi gapda axborot hajmini hisoblang (qo'shtirnoqlar inobatga olinmasin): "Dars - muqaddas"

A) 120 bit B) 15 bit

C) 17 bayt D) 120 bayt

27. HTML-hujjat matni qalin shrift ko'rinishida yozish uchun uni qaysi HTML teglar orasiga olish zarur?

A) $\langle Em \rangle \dots \langle /Em \rangle$ B) $\langle u \rangle \dots \langle /u \rangle$

C) $\langle strong \rangle \dots \langle /strong \rangle$ D) $\langle i \rangle \dots \langle /i \rangle$

28. 21, 131, 221 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.

A) 1033 B) 1220 C) 423 D) 143

29. $A_1 = -3$, $B_1 = 6$, $B_2 = 3$ bo'lsin. Quyidagi fo'rmla natijasi 2 ga teng bo'lishi uchun A_2 katakka kiritilishi kerak bo'lgan qiymatni aniqlang.

$=ECLII$ ($(I(A_1+B_2 \leq A_2 \cdot B_1; A_1 \cdot B_1 < 0))$; $A_1+B_2+B_1-A_2$; $A_1 \cdot B_1+B_2+A_2$)

A) 2 B) 4 C) 1 D) 6

30. Web brauzerda matnning ko'rinishi quyidagicha bo'lishi uchun uning HTML kodi qanday bo'lishi kerak.

Kvadrat tenglama $ax^2+bx+c=0$ ko'rinishida bo'ladi.

A) $\langle p \rangle \langle i \rangle$ kvadrat tenglama $\langle strong \rangle ax^{\langle sup \rangle 2} \langle /sup \rangle + bx + c = 0 \langle /strong \rangle$ ko'rinishida bo'ladi. $\langle /i \rangle \langle /p \rangle$

B) $\langle p \rangle \langle strong \rangle$ kvadrat tenglama $\langle i \rangle ax^{\langle sup \rangle 2} \langle /sup \rangle + bx + c = 0 \langle /i \rangle$ ko'rinishida bo'ladi. $\langle /strong \rangle \langle /p \rangle$

C) $\langle p \rangle \langle em \rangle$ kvadrat tenglama $\langle strong \rangle ax^{\langle sup \rangle 2} \langle /sup \rangle + bx + c = 0 \langle /strong \rangle$ ko'rinishida bo'ladi. $\langle /em \rangle \langle /p \rangle$

D) $\langle p \rangle \langle cite \rangle$ kvadrat tenglama $\langle strong \rangle ax^{\langle sup \rangle 2} \langle /sup \rangle + bx + c = 0 \langle /strong \rangle$ ko'rinishida bo'ladi. $\langle /cite \rangle \langle /p \rangle$

FIZIKA

31. Ishqalanish koeffitsiyenti 0,05 bo'lgan relsda turgan 50 t massali vagon tekis tezlanuvchan harakatlanib, 25 m ni 50 s da o'tishi uchun unga qanday kuch kerak (kN)? $g=10$ N/kg.

A) 25. B) 26. C) 30. D) 24.

32. Lift shiftiga osilgan dinamometrda 90 N og'irlikka ega bo'lgan yuk osilgan. Lift harakatga kelganda dinamometr ko'rsatkichi 90 N dan 84 N gacha kamaydi. Lift qanday harakatlanmoqda? $g=10$ N/kg.

A) $2/3$ m/s² tezlanish bilan pastga.

B) 4 m/s² tezlanish bilan yuqoriga.

C) $3,5$ m/s² tezlanish bilan pastga.

D) $3,5$ m/s² tezlanish bilan yuqoriga.

33. Po'lat quvurning uzunligi 20 m, uni bir gal bir uchidan osib qo'yilgan, boshqa payt yerga tik qo'yilgan. Bu ikki holda quvur uzunliklarining farqi (μ m) qanday? Po'lat zichligi 7900 kg/m³, Yung moduli $200 \cdot 10^9$ Pa. $g=10$ N/kg.

A) 316. B) 158. C) 263. D) 198.

34. E kinetik energiyaga ($\vartheta \ll c$) ega bo'lgan proton dastlab

tinch turgan a -zarraga yaqinlashmoqda. Zarralarning tezliklari tenglashgan paytda sistemaning kinetik energiyasi qanday bo'lgan? $m_a = 4m_p$.


A) $E/5$. B) $E/2$. C) $4E/5$. D) E .

35. a -zarraning dastlabki tezligi ϑ ($\vartheta \ll c$). a -zarra uzoq masofadan dastlab tinch turgan protonga yaqinlashmoqda. Bu sistemaning og'irlik markazining tezligi qanday? $m_a = 4m_p$.

A) $0,7\vartheta$. B) $0,55\vartheta$.


C) $0,6\vartheta$. D) $0,8\vartheta$.

36. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan. Vaqt $t=8$ s bo'lganda tezlik (m/s) qancha bo'lgan?




A) 8. B) 9,4. C) 9,8. D) 10,1.

37. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan. Vaqt $t=7$ s bo'lganda bosib o'tilgan yo'l (m) qancha bo'lgan?



A) 30. B) 59. C) 40. D) 60.

38. Jism bosib o'tgan yo'lining vaqtga bog'lanish grafigi paraboladan iborat. Jismning tezlanishini toping (m/s²).




A) 4. B) 5. C) 3. D) 7.

39. Odam tanasini absolut qora jism deb bilgan holda tanadan chiqadigan nurlashning maksimal to'lqin uzunligini toping (μ m). $T=309$ K. $b=0,0029$ m·K.

A) 4,76. B) 5,99. C) 10. D) 9,38.

40. Ferromagnetiklar uchun magnitlanish vektorining magnit maydon kuchlanganligiga bog'lanishini ko'rsating.



A) 1 va 2. B) 3. C) 2. D) 1.


41. Metan gaz molekulari dastlab 80 kPa bosim ostida turibdi. Uning hajmi 0,01 m³ dan 0,0272 m³ gacha izotermik oshdi. Metan molekularining bajargan ishini (J) toping?

A) 800. B) 1100. C) 2176 D) 1376.

42. Metan gazining hajmi 0,01 m³ dan 0,0272 m³ gacha izotermik oshdi va bosim 100 kPa ga yetdi. Metan molekularining bajargan ishini (kJ) toping?

A) 2,72. B) 800. C) 2176. D) 1000.

43. Bir atomli gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik kengaydi. Ideal gazning boshlang'ich temperaturasi oxirgi temperaturasiga teng. Gaz izobarik kengayishda 10 kJ issiqlik oldi. Adiabatik kengayishda va izobarik kengayishda qancha ish bajarilgan (kJ)?




- A) 12,8; 8,7. B) 12,6; 8,4.
C) 6; 4. D) 12,4; 8,6.

44. Osmiyning erish harorati 3033 °C, kobaltniki esa 1495 °C. Osmiy-kobalt qotishmasining erish harorati qaysi haroratlarda (°C) oralig'ida yotadi?

- A) (3033;4528). B) (1495;2264).
C) (0;1495). D) (2264;3033).

45. Bir atomli gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik kengaydi. Ideal gazning boshlang'ich temperaturasi oxirgi temperaturasiga teng. Gaz to'liq kengayishda 21 kJ ish bajargan. Butun jarayonda gaz ichki energiyasi qanchaga o'zgargan (kJ)?



- A) 0. B) 12,6. C) 14. D) 16.


46. Parallel nurlar dastasi yig'uvchi linzaning optik o'qiga 45° burchak ostida tushmoqda. Agar bu nurlar dastasining birinchi cheti fokusdan, ikkinchi cheti esa optik markazdan o'tsa va bu nurlar optik o'qdan 1 cm masofada yig'ilsa, nurlar dastasining diametrini aniqlang (cm).

- A) 4. B) $\sqrt{2}/2$. C) 1. D) 5.

47. Bel qaysi kattalik birligi?


- A) yoritilganlik. B) tovush qattiqligi.
C) yorug'lik kuchi. D) ravshanlik.

48. Quyida keltirilgan sxemadan foydalanib K va L nuqtalar orasida umumiy qarshilikni aniqlang.




- A) 9R. B) 3R. C) R. D) 6R.

49. Quyida keltirilgan sxemadan foydalanib K va L nuqtalar orasida umumiy qarshilikni aniqlang.



- A) 9R. B) 10R. C) 3R. D) R.

50. Bir jinsli kvadrat plastinkaning tomonlari 1 m, massasi 2 kg. Kvadratning uchlariga m_1, m_2, m_3, m_4 nuqtaviy jismlar joylashtirilgan. $m_1 = 8$ kg, $m_2 = m_3 = m_4 = 0$ holda sistema og'irlik markazining X koordinatasi (cm) aniqlansin. Kvadratning markazi koordinatalar boshida joylashgan.



- A) -40. B) 1. C) 32. D) -32.

51. Bir nechta tomchi qo'shilib yagona tomchi hosil bo'lganda harorati qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi. B) avval ortib, keyin kamayadi.
C) ortadi. D) o'zgarmaydi.

52. Biror balandlikdan erkin tushayotgan jism 1,25 metr masofani o'tgach qiyaligi 45° bo'lgan qiya tekislik bilan noelastik to'qnashdi. To'qnashuv 0,1 s davom etgan bo'lsa, jismga ta'sir qiluvchi kuchni (N) toping. Jism massasi 2 kg. $g=10$ m/s².

- A) 120. B) 50. C) 70. D) 100.

53. Suvga limmo-lim to'ldirilgan tubida teshigi bor chelak vaznsiz ipga bog'langan holda, matematik mayatnik sifatida tebranmoqda. Uning boshlang'ich holdagi tebranish davri T_1 va undagi suvning yarmi qolgandan keyingi davri T_2 qanday munosabatda bo'ladi?

- A) $T_1 < T_2$. B) $T_1 \approx T_2$.
C) $T_1 = T_2$. D) $T_1 > T_2$.

54. Bikrligi 450 N/m bo'lgan, dastlab cho'zilmagan prujinaga $m=4,5$ kg massali yuk osilib, qo'yib yuborildi. Prujina deformatsiyasi nolga teng bo'lgan vaqtda yukning tezligi qanday bo'ladi (m/s)?

- A) 0. B) 30. C) 10. D) 20.

55. Dastlab cho'zilmagan va bikrligi $k=120$ N/m bo'lgan prujina maksimal x ga cho'zilganda yukning balandligi $h=0$ deb hisoblab, prujina cho'zilishi $x/2$ ga teng bo'lgan paytda uning tezlanishini (m/s²) ni toping?

- A) 0. B) 9,8. C) 4,9. D) 5,4.

56. Gazlar uchun $\frac{m\bar{v}^2}{2} = eE\lambda$ ifoda o'rinli bo'ladi. Bunda λ nimanı bildiradi?

- A) solishtirma erish issiqligi.
B) elektron erkin yugurish yo'li.
C) to'lqin uzunlik.
D) solishtirma elektr o'tkazuvchanlik.

57. Quyida ko'rsatilgan atomlarning qaysi biri deyteriyga tegishli?



- A) 2. B) 1. C) 1 va 2. D) 3.

58. Stronsiy-89 izotopining o'rtacha yashash vaqti 72,9 sutka. Shu izotopning yarim yemirilish davri (sutka) topilsin.


- A) 101,2. B) 50,6. C) 72,9. D) 36,45.

59. Quyidagi nurlarni ionlashtirish qobiliyati o'sib borish tartibida joylashtiring.

- 1) α -nurlar; 2) β -nurlar; 3) γ -nurlar.

- A) 1; 2; 3. B) 3; 2 va 1 bir xil.
C) 1; 2 va 3 bir xil. D) 3; 2; 1.

60. Rasmda qandaydir modda atomlar sonining vaqtga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Shu grafikdan foydalanib, 8 sutkadan so'ng qancha atom qolishini aniqlang.



- A) 10^{22} . B) $2 \cdot 10^{20}$. C) 10^{20} . D) 10^{19} .

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Qaysi javobda qo'shma gapning ikkinchi qismida qo'llanadigan bo'g'lovchilar keltirilgan?
 A) toki, shuning uchun, bilan, hamda, basharti
 B) chunki, negaki, balki, ammo, lekin, biroq, ya'ni
 C) chunki, negaki, goh. . . goh, balki, mabodo
 D) ammo, lekin, agar, chunki, negaki
62. 1) -larcha; 2) -don; 3) -shunos; 4) -ona; 5) ser-; 6) -kash; 7) -dor
 Berilgan qo'shimchalardan qaysilarida shakldoshlik so'z yasovchilar o'rtasida kuzatilmaydi?
 A) 1, 2, 3, 5 B) 2, 6, 7
 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 7
63. Qo'qqisidan kirib kelmoq.
 Ushbu birikmadagi so'zlarning o'zaro aloqasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
 A) boshqaruv B) kelishikli boshqaruv
 C) bitishuv D) teng bog'lanish
64. Harakat nomi hol vazifasida kelgan gapni aniqlang.
 A) Uning bu boqishida Sobirning bilag'onligiga qoyil bo'lishdan tashqari ajablanish ham bor edi.
 B) Nasiba ertalab barvaqt kelish sharti bilan dugonasining ketishiga ijozat berdi.
 C) Jo'yakda cho'zilib, soya-salqinda dam olish uchun ariq bo'yiga keldi.
 D) Berilgan barcha gapda harakat nomi hol vazifasida kelgan.
65. Har ikki qismi ham omonim xarakterga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan qo'shma so'zlar ko'rsatilgan javobni toping.
 1) toshqovoq; 2) belbog';
 3) yor-do'st; 4) tokqaychi;
 5) qo'shog'iz; 6) bodomqovoq.
 A) 4, 6 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 6 D) 1, 2, 5
66. Qofiya she'riy asarning musiqiyli, ohangdorligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi. Ushbu gapda yasama so'zlar qaysi bo'lak vazifasida kelgan?
 1) kesim; 2) ega; 3) hol;
 4) to'ldiruvchi; 5) aniqlovchi.
 A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 4
 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 3
67. Qaysi qatorda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladigan ot yasovchi qo'shimchalar berilgan?
 A) -xon, -ma, -in B) -choq, -ma, -cha
 C) -cha, -lab, -ma D) -choq, -chak, -lik
68. «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan «O'kuz azaqi bo'lg'incha buzag'u bashi bo'lsa yik» maqoli izohini toping.
 A) Ho'kizning oyog'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq
 B) Ho'kizning oyog'i, buzoqning boshi yaxshi
 C) Ho'kizning oyog'i buzoqning boshiga teng
 D) Buzoqning boshi bo'lguncha ho'kizning oyog'i bo'l
69. Quyidagi hujjatlarning qaysi biri rasmiy uslubning idoraviy-devonxona uslubi turida yoziladi?
 A) konvensiya B) bildirgi

- C) jinoiy aktlar D) qonun

70. Qaysi gapda tovush o'zgarishi, sirg'aluvchiga tegishli?
 A) Mana, xotining yamoq-yasqoqqa o'rab yig'gan kimxoblar kuyib yotibdi.
 B) Ikkinchi bilaguzukni dadasi onasining qo'lidan chiqarib sotib kelgan edi.
 C) Dildor hamon qimirlamas, otliqdan ko'z uzmas edi.
 D) Xotini, bolalari bo'lganda shunaqa bo'lib yurarmidi?
71. Quyida berilgan gaplarning qaysilarida sifatdan yasalgan ot ishtirok etgan?
 1. To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.
 2. Kamtar bo'l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi.
 3. O'z fikrini o'ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi.
 A) 2, 3 B) 1, 2, 3 C) 1, 3 D) 1, 2
72. Grekcha "birgalikda anglash" so'zidan olingan ma'no ko'chishi qanday nomlanadi?
 A) vazifadoshlik B) metafora
 C) sinekdoxa D) metonimiya
73. Nechta so'zda nuqtalar o'rniga bo'g'iz undoshi yoziladi?
 ...abash, ...abib, ...avas, ...ijja, ...ijjalab, ...ijil, ...
 aspo'shlamoq
 A) 5 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 6 ta
74. Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur sabog'iga izzat-ehtirom bilan qadam qo'ymoq lozim. Ushbu gapda qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang
 A) 3 ta qator undoshli so'z
 B) 4 ta qator undoshli so'z
 C) 2 ta qator undoshli so'z
 D) 1 ta qator undoshli so'z
75. ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon ish yuritish hujjatlarining qaysi turiga kiradi?
 A) Ma'lumot-axborot hujjatlari
 B) Farmoyish hujjatlari
 C) Xizmat yozishmalari
 D) Tashkiliy hujjatlar
76. «Biz qo'rqmadimiz, sungusdimiz». Berilgan gapning tarjimasini toping.
 A) Biz alplarmiz, qo'rqmaymiz
 B) Biz jangga otlandik
 C) Biz qo'rqmadik, jang qildik
 D) Biz jang qilishdan qo'rqmaymiz
77. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xatolik yo'q gapni toping.
 A) Nahotki, yosh o'lib javonmard bo'lib ketishni afzal bilgan bo'lsa?!
 B) Ko'yilgining bir uchi taxta yorug'ida ilinib qolgan emish.
 C) Har qanday mahsulot o'z servis markazlariga ega bo'lishi kerak.
 D) Choy tubiga cho'kkan sha'malarni olib, quritib qo'y.
78. To'g'ri yozilgan so'zni toping.
 A) ta'magir B) intellektual
 C) inshoat D) taftish
79. Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol; nimaiki jo'shqin bo'lsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo'lsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol. Berilgan gapda nechta moslashuvli so'z birikmasi mavjud?
 A) 2 B) 5 C) 4 D) 3
80. Qaysi gapda vergul qo'shma gap qismlari orasida qo'llangan?
 A) U to'qayzorda sassiq alafning, qamishlarning, gulni

payhon qiluvchi to'ng'izlarning ko'pligidan ajablanmadi

B) "Avesto"da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila olishni o'rganishlari shartligi aytilgan.

C) Bu gaplarimdan cho'chimang, qo'rqmang, hali boshingizda ne savdolar bordir.

D) Maktablarda, oily o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilmoqda.

81. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p qaytarishadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi.

Berilgan parchada fe'l nisbatlarining necha turi qo'llangan?

A) 2 B) 4 C) 3 D) 5

82. Hans Kristian Andersenning 1-yirik romani qaysi?

A) "Suv parisi" B) "Improvizator"

C) "Dyumchaxon" D) "Bulbul"

83. "Qutadg'u bilig"ni mochinliklar qayday atashgan?

A) "Ziynat ul-umaro" (Amiriylar ziynati)

B) "Amin ul-mamlakat" (Mamlakat omonliklari)

C) "Shohnomayi turkiy" (Turkiy shohnoma)

D) "Adab ul-mulk" (Podshohlar odobi)

84. Mani aslim erur olamg'a ravshan, Tavallud manzilimdur Istaravshan. Ushbu misralar muallifini toping.

A) Dilshodi Barno B) Anbar Otin

C) Uvaysiy D) Nodira

85. Erta tong shamoli sochlarin yoyib,

Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen. Ushbu misralarda

qanday she'riy san'at qo'llangan?

A) Tanosub B) Takrir

C) Tashbih D) Tashxis

86. "Bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham, oti o'likdir. Bilimlning biri bilimsizning minggiga teng, ilmi kishilar ilmning qadriga yetadi". Ushbu parcha qaysi asardan?

A) "Devonu lug'ot it-turk" B) "Qutadg'u bilig"

C) "Yatimat ad-dahr" D) "Hibatul -haqoyiq"

87. N.Ganjaviy Iroq hukmdori To'g'rul II ning iltimosiga ko'ra qaysi dostonini yaratadi?

A) "Layli va Majnun" B) "Xusrav va Shirin"

C) "Maxzan ul-asror" D) "Haft paykar"

88. "O'n ikki stul", "Oltin buzoqcha" asarlarining muallifini toping.

A) Pushkin B) Ilf va Petrov

C) Tolstoy D) Chexov

89. "Me`mor"(Mirmuhsin) romanida G'avvos kimga "Sen la'nati meni yo'ldan ozdirding, bo'lmasa men Hirotdan chiqmagan bo'lardim!- deb baqiradi?

A) Horunbek. B) Zavrak.

C) Zulfiqor. D) Badia.

90. "Al-adab al-mufrad" asarida kimda shu xislat bo'lmasa, u aybli va nuqsonli bo'ladi deb nima aytilgan?

A) muloyimlik B) ilmlilik

C) aqllilik D) chiroylilik